O‘SPIRINLIK DAVRIDA MULOQOT MUAMMOSI

Ismailova Guljahon Fahratdinovna

Annotatsiya:Mazkur maqolada ilk o’spirinlik davrining hozirgi zamondagi talqini, bu davrning boshqa yosh davrlaridan juda ko’p farqli tomonlari, asoslari, akseleratsiya jarayonining ta’siri, bu yosh davrga xos bo’lgan shaxslararo munosabar va muloqot shakllari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ilk o’spirinlik, yosh davrlari, shaxslararo muloqot, akseleratsiya, shaxslararo munosabatlar, senzitiv davr, ijtimoiylashuv emotsional muhit kommunikativ jarayonlar kompleks yondashuv O‘spirinlik davri inson hayotidagi eng murakkab psixologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglash jarayoni va muloqot tizimi sezilarli darajada o‘zgaradi. Aynan shu davrda yuzaga keladigan muloqot muammolari o‘spirinning psixologik rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar (Erikson, Vigotskiy, Bandura va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, o‘spirinlik davrida muloqotdagi qiyinchiliklar ko‘pincha ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik va ijtimoiy rol izlash bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘spirinlik inqirozi – bu yoshlarning o‘zligini anglash, mustaqil fikrlash va atrof muhit bilan munosabatlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan murakkab ruhiy holatdir. Bunday davrda yoshlarda shaxsiylik inqirozi, emotsional beqarorlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va tengdoshlar bosimi kuchayadi. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun birinchi navbatda o‘spirin bilan ochiq va samimiy muloqot yo‘lga qo‘yilishi lozim.

O‘spirinlik davrida muloqotga ehtiyoj kuchayadi, muloqot vaqti ortadi, muloqot doirasi kengayadi. Muloqot doirasining kengayishi bilan muloqot chuqurlashadi va individuallashadi. Axloqiy va ijtimoiy, siyosiy hislarning rivojlanishi ayniqsa xarakterlidir. Ular odatda muayyan axloqiy talablar bilan o‘zaro to‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar. Boshdan kechirgan his-tuyg‘ularni anglab yetish mahorati ham rivojlanadi. Oiladagi nizolarning o‘spirin psixologiyasiga ta’siri mavzusi bo‘yicha tadqiqot ishida bir necha metodikalardan foydalanildi: Oiladagi muhitni aniqlash bo‘yicha 10 savoldan iborat savolnoma,Spilberger-Xanin shaxsiy va vaziyatli xavotirlanish so‘rovnomasi, Dembo-Rubinshteyn usuli yordamida o'ziga bo'lgan ishonchni o'lchash metodikalaridan foydalanildi. .10 savoldan iborat Mazkur so‘rovnoma oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan kommunikativ muammolar, emotsional zo‘riqishlar va nizoli vaziyatlarning darajasini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, ishonch, ochiqlik va qo‘llab-quvvatlash darajasini baholash hamda konfliktogen omillarning mavjudligini empirik jihatdan o‘rganishdan iborat.Shuningdek, ushbu metodika orqali o‘spirinlar (yoki respondentlar)ning oiladagi psixologik muhitni qanday idrok etishi va baholashi aniqlanadi. So‘rovnoma 10 ta savoldan iborat bo‘lib, ular oilaviy kommunikatsiya va nizolarni turli jihatlari bo‘yicha qamrab oladi. Jumladan: Kommunikativ jarayonlar (1, 2, 8-bandlar) – oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot sifati, bir-birini tushunish darajasi.Muammoli vaziyatlarni hal etish (3, 9-bandlar) – nizolarni bartaraf etish mexanizmlarining samaradorligi. Emotsional muhit (4, 5-bandlar) – oiladagi psixologik iqlim, yaqinlik va qo‘llabquvvatlash darajasi.Ishonch va ochiqlik (6, 7-bandlar) – oila a’zolari o‘rtasidagi ishonch munosabatlari.Konfliktogen omillar (10-band) – kamsitish, ayblash, befarqlik kabi salbiy omillarning mavjudligi. Mazkur savollar respondentlarning subyektiv fikrlariga asoslanadi va oilaviy muhitni kompleks baholash imkonini beradi.Ushbu so‘rovnoma quyidagi ilmiy va amaliy sabablarga ko‘ra tanlandi: Moslashuvchanlik – savollar oila ichidagi real psixologik jarayonlarni aks ettiradi. Soddalik va

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tushunarlilik – respondentlar uchun aniq va qisqa bayon etilgan. Kompleks yondashuv – kommunikatsiya, emotsional holat va nizolarni birgalikda tahlil qilish imkonini beradi

Mazkur metodika natijalari oilaviy munosabatlar tizimida emotsional muhitning keskin va zo‘riqish darajasi yuqori ekanligini ham ko‘rsatdi. Respondentlarning javoblari tahlili shuni anglatadiki, oilada hissiy 312 barqarorlik yetarli emas, aksincha, tez-tez emotsional tanglik, asabiylik va ichki ziddiyatlar yuzaga keladi. Psixologik to'siq - bu sherigiga rna'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga xalaqit beruvchi, o'ziga hos ichki psixik tormozdir.

Xususan, “oilada emotsional zo‘riqish va keskinlik tez-tez namoyon bo‘ladi”, “o‘z fikr va hissiyotlarini erkin ifoda etishda qiyinchilik mavjud”, “yaqinlik va qo‘llabquvvatlash yetarli emas” kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori natijalarning qayd etilishi oilaviy emotsional muhitning noqulayligini tasdiqlaydi. Bunday sharoitda o‘spirinlar o‘zlarini psixologik jihatdan himoyasiz his qiladi, bu esa ularda xavotir, ichki bezovtalik va emotsional beqarorlikning ortishiga olib keladi.Ilmiy jihatdan qaralganda, emotsional muhitning salbiyligi oila a’zolari o‘rtasidagi affektiv aloqalarning sustligi bilan izohlanadi. Ya’ni, ijobiy hissiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va salbiy emotsiyalarning ustunligi o‘zaro munosabatlarda sovuqlik, befarqlik yoki keskinlikni kuchaytiradi. Bu esa o‘spirinning emotsional regulyatsiya qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir etib, uning stressga chidamliligini pasaytiradi. Bundan tashqari, bunday emotsional muhit o‘spirin xulq-atvorida ham aks etadi. Ular tajovuzkorlik, tortinchoqlik, ijtimoiy chekinish yoki aksincha, keskin reaksiyalar orqali ichki zo‘riqishni namoyon qilishi mumkin. Bu holat o‘quv faoliyati va tengdoshlar bilan munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari oilada emotsional muhitning yuqori darajadagi zo‘riqish bilan tavsiflanishi o‘spirinlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli oilada ijobiy emotsional muhitni shakllantirish, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, shuningdek, psixologik profilaktika choralarini amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Steinberg, L. (2014). Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. Houghton Mifflin Harcourt
2. Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor D.B.Botirova 2021
3. Nishanova, Z.T. Rivojianish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: «0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.